



ON THE ISSUE OF RESEARCHING AXIOLOGICAL ASPECTS OF HUMAN ACTIVITY AND EXISTENTIAL PROCESSES

Farrukh Abdurakhmanovich Yuldashev

FarDu, Department of Philosophy and National Idea

Senior Lecturer (PhD)

Farruxy911@gmail.com

Fargana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: existence, being, human, personality, worldview, axiology, freedom, development, philosophical thinking, digital society, social activism.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: The article examines the issues of studying human existence, its meaning, changes in human activity in a digital society, the meaning of life, the formation of a value attitude towards it, philosophical reflections on the fundamental problems of existential philosophy, such as freedom, choice, death and loneliness, as well as the socio-philosophical aspects of the processes of their comprehension.

INSON FAOLIYATI VA EKZISTENSIAL JARAYONLARNING AKSIOLOGIK JIHATLARI VA ULARNING TADQIQ ETILISHI MASALASIGA DOIR

Farrux Abduraxmanovich Yuldashev

FarDu, falsafa va milliy g'oya kafedrası

katta o'qituvchisi (PhD)

Farruxy911@gmail.com

Фергана, О'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekzistensiya, mavjudlik, inson borlig'i, shaxs, dunyoqarash, aksiologiya, erkinlik, taraqqiyot, falsafiy fikrlash, raqamli jamiyat, ijtimoiy faollik.

Annotatsiya: Ushbu maqolaning markazida insonning borlig'i, (ekzistensiyasi) uni o'rganilishi bo'lib, raqamli jamiyatda inson faoliyatini qanday o'zgarayotganini tadqiq etish, hayotning ma'nosi, unga qadriyatli munosabatni shakllantirish, erkinlik, tanlov, o'lim va yolg'izlik kabi ekzistensiya falsafasidagi fundamental muammolarga doir falsafiy fikrlar va ularni anglash jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy tomonlari yoritilgan.

К ВОПРОСУ ОБ ИССЛЕДОВАНИИ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

Фаррух Абдурахманович Юлдашев

ФарДУ, кафедра философии и национальной идеи

Старший преподаватель (PhD)

Farruxy911@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
экзистенция, бытие, человек, личность, мировоззрение, аксиология, свобода, развитие, философское мышление, цифровое общество, социальный активизм.	В статье рассматриваются вопросы изучения человеческого существования, его смысла, изменения человеческой деятельности в цифровом обществе, смысл жизни, формирование ценностного отношения к нему, философские размышления по поводу фундаментальных проблем экзистенциальной философии, таких как свобода, выбор, смерть и одиночество, а также социально-философские аспекты процессов их осмысления.

Kirish. Jamiyatning asosiy resursi axborot bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarning aksariyati raqamli jamiyat orqali amalga oshadigan, insonning axborot almashish, mehnat qilish, o'rganish va ijtimoiylashish kabi maqsadga yo'naltirilgan harakatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Insonning o'z borlig'i (mavjudligi), hayotning ma'nosi, erkinlik, tanlov, o'lim va yolg'izlik kabi fundamental muammolar ustidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va ularni anglash jarayoni ekzistensializm falsafasiga asoslanadi. Axborotlashgan jamiyat insonga cheksiz qulaylik berdi, lekin uning ekzistensial xavfsizligiga putur yetkazdi. Inson endi o'z borlig'ini texnologiyalar bilan munosabat orqali qayta aniqlashi kerak. Ekzistensializm shaxsning erkin va mas'uliyatli shaxs sifatida mavjudligini iroda harakatlari orqali o'z rivojlanishini belgilovchi falsafiy nazariya yoki yondashuvdir. Ijtimoiy hayotda jarayonlar va ularning falsafiy mohiyati, ekzistensializmning namoyon bo'lishi va tushunilishini tadqiqotchilar va faylasuflar inson faoliyati (ya'ni, uning erkin tanlovi, harakatlari va o'zini-o'zi anglashi) bilan uzviy bog'lagan holda chuqur tadqiqotlar olib boradilar va sharhlaydilar. Ularning fikricha, insonning mavjudligi (ekzistensiyasi) uning mohiyatidan oldin keladi. Demak, inson avval dunyoga keladi, mavjud bo'ladi, so'ng o'zining harakatlari, tanlovlari va faoliyati orqali o'zining mohiyatini (kimligini, qanday bo'lishini) yaratadi. Bu jarayonda faoliyat va tanlov markaziy o'rin tutadi. Inson mutlaq erkinlikka ega va o'z tanlovlari uchun to'liq javobgardir. Insonning faoliyati (tanlovi) o'zini ham, butun insoniyat uchun "Mavjudlik mohiyatdan oldin keladi" tamoyili[1] muhimdir. Inson hayotining absurdligi g'oyasi

ham tadqiqotchilar tomondan keng tahlil etilgan bo'lib, faoliyat - bu absurdlikka qarshi isyon (qarshi turish) shaklidir. Inson bu absurd sharoitda ham qadriyat va ma'no yaratishi kerak[2]. Insonning mavjudligi - bu "Dasein" (mavjudlik). Insonning asosiy faoliyati – "zabotitsya" (g'amxo'rlik qilish, hayotda o'z o'rnini topish) va "Bitiye-k-smerti" (O'lim tomon yaqinlashish) orqali o'z haqiqiy (autentik) mavjudligini angelaydi[3]. Inson hayotda o'z mavjudligining turli bosqichlarini (estetik, etik, diniy) orqali o'tadi. Faoliyat umidsizlik, qo'rquv va iymon orqali haqiqiy shaxsiyatni yaratishdir[4]. "Potensial ekzistensiya" (Potensial mavjudlik) tushunchasi inson o'z faoliyatida "pogranichniye situatsii" (chegaraviy vaziyatlar – o'lim, ayb, kurash) bilan to'qnashib, transtendensiya (oliy mavjudlik) bilan aloqaga kirishadi va shu orqali o'z haqiqiy o'zini yaratadi[5]. Bu olimlarning barchasi inson faoliyatini shunchaki mehnat yoki ijtimoiy harakat deb hisoblashmaydi, balki uni falsafiy-ekzistensial harakat deb bilishadi. Shu ma'noda inson faoliyatida birinchi navbatda quyidagi omillarga e'tibor qaratish talab etiladi:

-Erkinlik va javobgarlik. Inson faoliyatida har bir lahzadagi erkin tanlovi biz har bir harakatimiz uchun javobgarmiz, chunki bu harakat butun insoniyat qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurimizni o'zida aks ettiradi.

-O'zini-o'zi anglash (mohiyatni yaratish). Inson tug'ilganda "tayyor" mohiyatga ega emas, uning faoliyati, tanlovi, loyihalari (maqsadlari) orqali u o'zining kimligini – mohiyatini yaratadi. Inson faoliyati ikki xil bo'lishi mumkin. O'z erkinligini anglagan, chegaraviy vaziyatlar (o'lim, yolg'izlik) bilan yuzma-yuz kelgan va o'z tanlovi uchun javobgarlikni olgan insonning harakatlari kuzatiladi. Noautentik faoliyatda jamiyat, turli odatlar yoki ijtimoiy rollar tomonidan belgilangan, o'zining erkinligidan qochishga qaratilgan harakatlar kuzatiladi. Ekzistensial tadqiqotlar inson faoliyatining motivi sifatida tashvish (qo'rquv)ni ko'rsatadi. Bu tashvish hayotning bema'niligi (Kamyuning absurdligi), o'z erkinligining dahshatliliigi (Sartre), yoki o'limning muqarrarligi (Xaydegger) oldida turadi. Insonning faoliyati esa aynan shunday sharoitda ma'no yaratishga qaratilgan. Bu olimlar ekzistensiya va faoliyat o'rtasidagi uzviylikni faqat falsafiy jihatdan emas, balki psixologiya (Rollo Mey, Irvin Yalomning ekzistensial psixoterapiyasi), adabiyot (Kamyu, Sartre asarlari) va axloqshunoslik sohalarida ham chuqur o'rganishga asos bo'lganlar. Insonning mavjudligi, uning hayotiy tanlovi va erkinligi masalalarini bevosita ekzistensializm falsafasi doirasida o'rgangan va bu borada muayyan asarlar yaratgan o'zbek olimlari asosan XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi va hozirgi zamon falsafasida chuqur iz qoldirganlar.

O'zbekistonda ekzistensializm falsafiy oqim sifatida sobiq sho'rolar davrida tanqidiy o'rganilgan, lekin mustaqillikdan so'ng inson va uning erkinligi muammosi, shu jumladan ekzistensial g'oyalar chuqurroq tadqiq etila boshlandi. Klassik ekzistensializmning (Sartre, Kamyu) g'oyalarini to'g'ridan-to'g'ri "O'zbek falsafasi" deb atash qiyin bo'lsada, bu g'oyalarni o'zbekcha talqinda yoki o'zbek olimlarining ilmiy ishlarida o'rgangan va milliy qadriyatlar bilan bog'lagan

tadqiqotchilar mavjud. Ekzistensiya va inson faoliyatini o'rgangan o'zbek olimlari orasida ekzistensiya, shaxs erkinligi va faoliyati masalalarini tadqiq qilgan, dissertatsiyalar yoqlagan yoki darsliklar yaratgan bir qator faylasuflarni alohida qayd etish mumkin. Ular o'z ishlarida ekzistensializmning asosiy tushunchalari (erkinlik, mas'uliyat, ma'no, o'lim)ni tadqiq etgan falsafa sohasidagi tadqiqotchilar g'arb ekzistensializmini o'rganish va uni milliy falsafiy-ma'naviy meros, ayniqsa, tasavvuf va insonparvarlik g'oyalari bilan qiyoslash orqali ekzistensiya muammosini tadqiq etishgan. Ibrohim Mo'minovning asosiy faoliyati klassik falsafa tarixi va ijtimoiy falsafaga qaratilgan bo'lsada, o'zbek falsafasida inson muammosi va uning faoliyatini tadqiq etishning metodologik asoslarini yaratishga hissa qo'shgan[6]. S.Ziyodullayev, B.Karimovlar zamonaviy falsafada shaxs erkinligi, ma'naviy ekzistensiya va o'zlikni anglash kabi muammolarni ekzistensial nuqtai nazardan tadqiqot qilgan. Z.Nishonova, M.G'oziyev maktablarida shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati, hayot mazmunini izlash va shaxsiy tanlov mas'uliyati masalalari ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rgangan. Bu yo'nalishlardagi tadqiqotlar ekzistensial-gumanistik psixologiyaga yaqindir. Ekzistensiya va inson faoliyatiga milliy yondashuv o'zbek olimlarining ikki asosiy yo'nalish kuzatiladi:

1. Qiyosiy tahlil. G'arb ekzistensializmini (ayniqsa, Sartrning "erkinlik" va Xaydeggerning "Dasein" tushunchalarini) o'rganish va uni tanqidiy yoki taqqoslash asosida tahlil qilish.

2. Milliy-ma'naviy asoslar. Insonning hayotiy faoliyati va mohiyati muammosini o'rta asrlardagi tasavvuf (masalan, Naqshbandiya) falsafasidagi komil inson g'oyasi, o'zlikni anglash va ma'naviy ozodlik tushunchalari bilan bog'lash. Tasavvufdagi "Safar dar vatan" (vatanda bo'la turib safarda bo'lish – ichki o'zgarish) tamoyili insonning ichki faoliyati va o'z ekzistensiyasini o'zgartirishiga juda yaqin turadi. Ekzistensiya va inson faoliyati to'g'risidagi g'oyalar O'zbekiston ilmiy muhitida zamonaviy falsafa va psixologiya doirasida faol o'rganilmoqda, ayniqsa erkinlik, mas'uliyat va ma'no kabi ekzistensial muammolar milliy va umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinmoqda. Ekzistensializm oqimidagi markaziy muammolardan biri insonning dunyodagi o'rni, uning hayotidagi ma'no va shaxsiy mas'uliyati masalalarini qamrab oladi. Shu ma'noda mavjudlik nafaqat jismoniy mavjudlik, balki insonning o'ziga xos, ongli va shaxsiy mavjudligini anglatadi. Inson tanlovlari va faoliyati orqali o'zining mohiyatini (kimligini, qanday inson bo'lishini) yaratadi. Ekzistensializm faoliyat (harakat, amaliyot) shunchaki mehnat yoki oddiy harakat emas, balki ekzistensiyani shakllantiruvchi markaziy jarayondir. Har bir harakat – bu ma'lum bir qadriyatni tanlash va o'zingga "mana shunday bo'lish" mas'uliyatini olishdir[7]. Erkinlik va mas'uliyat insonning mutlaq erkinligi uning faoliyati bilan uzviy bog'liq. Agar inson erkin bo'lsa, u o'zining har bir tanlovi, har bir harakati uchun to'liq javobgar (mas'ul) bo'ladi. Sartrga ko'ra, shaxs bir qaror qabul qilganda, nafaqat o'zi uchun, balki "butun insoniyat qanday bo'lishi kerak"[8] ligi haqida ham qaror qabul qiladi. Inson o'zi qanday bo'lsa boshqalarni ham

shunday deb biladi. Inson faoliyati doim kelajakka yo'naltirilgan loyiha shaklida bo'ladi. Inson doim "hozirgi" holatidan tashqariga intiladi, u o'zi yaratadigan narsadir. Ekzistensializm nazariyasiga ko'ra, insonning ekzistensiyasi (mavjudligi) uning faoliyati (tanlash va harakat qilish) orqali uzluksiz ravishda yaratiladi. Siz kim bo'lsangiz, bu sizning tanlovingiz va faoliyatingiz natijasidir. Insonning mavjudligini (ekzistensiyasini) uning faoliyati bilan bog'lab o'rganish ekzistensial falsafaning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Bu tadqiqot jarayonida insonning borlig'i va uning harakatlari bir-biridan ajralmas holda tahlil qilinadi. Bunda quyidagi asosiy jihatlar o'rganiladi:

- Mavjudlik va mohiyatning o'zaro aloqasi. Falsafiy tadqiqotning birinchi qadami ekzistensializmning asosiy tamoyili — mavjudlik mohiyatdan oldin g'oyasidan boshlanadi. Mavjudlik (ekzistensiya) bu insonning dunyoga kelib, muayyan vaqt va makonda bor bo'lishi. Mohiyat (essensiya) bu insonning kimligi, uning haqiqiy tabiati va unga xos bo'lgan sifatlar yig'indisidir. Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, boshqa narsalardan farqli o'laroq, insonning mohiyati oldindan belgilanmaydi. Uning faoliyati orqali mohiyati shakllanadi. Masalan, bir pichoqning mohiyati (kesish) uni yaratilishidan oldin belgilanadi. Lekin insonning mohiyati uning hayoti davomida qilgan tanlovlari va harakatlari bilan paydo bo'ladi.

- Faoliyat erkinlikning ifodasi sifatida ekzistensial tadqiqotda inson faoliyati shunchaki mehnat yoki jismoniy harakat sifatida emas, balki mutlaq erkinlikning namoyon bo'lishi sifatida ko'riladi. Tanlash va mas'uliyat insonning har bir harakati ongli yoki ongsiz tanlov natijasidir. Bu tanlov uning shaxsiy mas'uliyatini belgilaydi. Faylasuflar insonni "erkinlikka hukm qilingan" deb ataydilar, chunki u har doim tanlashga majbur va har bir tanlov uchun javobgardir. Inson faoliyati o'zining mavjudligiga mazmun beradi. Inson o'z hayotini qanday yashashni, qanday qadriyatlarga amal qilishni o'zi belgilaydi. Bu jarayon "loyiha" deb ataladi. Har bir harakat insonning kelajakdagi o'zini yaratishga qaratilgan "loyiha"ning bir qismidir. Inson faoliyatini tadqiq etishda uning hayotidagi eng muhim ekzistensial holatlar va hissiyotlarning roli o'rganiladi. Qo'rquv (trevoga) inson o'z erkinligining cheksiz ekanini anglaganida his qiladigan vahima bo'lib, bu his-tuyg'u faoliyatga turtki beradi, chunki inson o'z hayoti uchun mas'uliyatni bo'yniga olishga majbur bo'ladi. Absurd hayotning obyektiv ma'noga ega emasligini anglashdan kelib chiqadigan holat. Kamyu falsafasiga ko'ra, inson faoliyati bu absurdlikka qarshi isyondir[9]. Faqatgina bu isyon orqali inson o'z hayotiga shaxsiy ma'no bag'ishlay oladi. O'lim ekzistensial tadqiqotning markaziy mavzularidan biri bo'lib, o'limning muqarrarligini anglash inson faoliyatiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Har bir harakat, narsalarning o'tkinchiligi, hayotning, insonning umri qisqaligini hisobga olgan holda bajariladi va shu sababdan u ahamiyat kasb etadi. O'limning muqarrarligini anglash Martin Xaydegger va Alber Kamyu fikrlariga ko'ra, inson o'limning mavjudligini anglab yetganida, uning hayoti yangi ma'no kasb etadi. Har bir daqiqa qadrlil bo'lib

qoladi. O'lim — bu hayotni ma'nosiz qiluvchi yakun emas, aksincha, uning har bir onini yagona va takrorlanmas qiluvchi omildir. O'limning muqarrarligini anglash hayotni bema'ni qilmaydi, aksincha, unga oliy qadriyat bag'ishlaydi. Martin Xaydeggerning "O'limga qarab mavjudlik" (Sein zum Tode) g'oyasiga ko'ra, inson o'limni inkor etish o'rniga, uni o'z mavjudligining ajralmas qismi sifatida qabul qilsa, u haqiqiy yashay boshlaydi[10]. O'lim har bir daqiqaning noyobligini va qisqaligini ko'rsatib, insonni hozirgi vaqtda mas'uliyatli faoliyat yuritishga va hayotiga ma'no beradigan ishlarni qilishga undaydi[11].

Ekzistensial jarayonlar insonning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Inson tashqi olamdagi o'z o'rnini o'zi yaratadi, bu esa uning faoliyati orqali amalga oshadi. Inson hayotidagi ekzistensial holatlarni (ya'ni, qo'rquv, tashvish, yolg'izlik, o'lim va hayot ma'nosi kabi asosiy muammolarni) o'rganish natijalari nafaqat falsafa uchun, balki psixologiya, tibbiyot va ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari insonning haqiqiy (autentik) va mas'uliyatli hayot kechirish yo'llarini ochib berishga qaratilgan. Ta'kidlash kerakki, mas'uliyatni qabul qilish o'z tanlovlari va harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganadilar. Bu ularga o'z hayotini o'zgartirish kuchiga ega ekanliklarini anglatadi. Shaxsiy rivojlanishga undash, tashvish, ayb yoki pushaymonlik kabi salbiy hissiyotlar, agar to'g'ri tahlil qilinsa, insonni o'z potensialini ro'yobga chiqarishga va haqiqiy o'zini topishga undaydi. Shu bilan bir qatorda qiyinchiliklarga chidamlilik, ekzistensial qarashlar insonga chegaraviy vaziyatlarda (kasallik, yo'qotish, krizislar) ham hayotda ma'no topish mumkinligini ko'rsatib, uning ruhiy bardoshlilikini oshiradi. Ushbu jarayonlarni hisobga olib, insonga o'z hayotining yagona muallifi va javobgari ekanligini anglatish va uni ongli, erkin hamda ma'noli faoliyatga yo'naltirish talab etiladi. Bundan tashqari ekzistensiya insonning dunyodagi shaxsiy, yagona va ongli mavjudligini anglatadi. Ekzistensializm falsafasidagi asosiy g'oya shundaki, insonning mavjudligi (borlig'i) uning mohiyati, mazmuni bilan dialektik aloqadordir. Ya'ni, inson dunyoga tayyor mohiyat, o'zligi bilan kelmaydi, balki o'z axloqiy tanlovlari, xatti-harakatlari, ixtiyor erkinligi va faoliyati orqali o'zining mohiyatini o'zi yaratadi. Ushbu jarayonda aksiologiya falsafaning qadriyatlarni o'rganuvchi sohasi orqali u inson uchun nima yaxshi, nima yomon, nima muhim va nima ahamiyatsiz ekanligi haqidagi savollarga javob izlash lozim. Aksiologiya qadriyatlarning tabiati, kelib chiqishi, turlari va ularning inson hayotidagi o'rnini tadqiq qiladi. Ekzistensiya va aksiologiya o'rtasidagi uyg'unlik inson hayotini tushuntirish, ekzistensializm hayotning oldindan berilgan universal ma'nosi yo'qligini ta'kidlasa, aksiologiya insonning faoliyati orqali o'zi uchun ma'no yaratishi mumkinligini ko'rsatadi. Inson o'z tanlovi asosida muayyan qadriyatlarni qabul qiladi va shu qadriyatlarga asoslanib yashaydi. Bu jarayon hayotga ma'no bag'ishlaydi. Masalan, oila, do'stlik, erkinlik yoki ijodkorlik kabi qadriyatlarni tanlash inson mavjudligiga maqsad beradi.

Ekzistensializm insonning mutlaq erkinligini ulug'laydi. Bu erkinlik aksiologiya bilan bog'langandagina to'liq mazmunga ega bo'ladi. Inson erkin bo'lgani uchun u nafaqat tanlaydi, balki qilgan tanlovlari mas'uliyatini ham o'z zimmasiga oladi. Bu mas'uliyat esa uning qadriyatlariga (o'zi uchun nima muhimligiga) asoslanadi. Agar inson axloqiy qadriyatlarni tanlamasa, uning erkinligi va mas'uliyati ma'nosiz bo'lib qolishi mumkin. Haqiqiy ekzistensiya — bu insonning o'zligi, ya'ni boshqalar yoki jamiyat tomonidan yuklatilgan qoliplardan xalos bo'lib, o'z ichki qadriyatlariga tayanib harakat qilishidir. Aynan shu ichki qadriyatlar (aksiologiya) insonning haqiqiy ekzistensiyasini shakllantiradi va uni soxta hayotdan ajratib turadi. Inson hayotidagi ekzistensial inqirozlar (masalan, qo'rquv, yolg'izlik) uni o'zining hayotidagi qadriyatlarni qayta baholashga undaydi. Masalan, o'limni anglash insonni hayotdagi arziyas narsalardan voz kechib, haqiqatan ham muhim bo'lgan qadriyatlarga (oila, sevgi, ijod) e'tibor qaratishga majbur qiladi. Ya'ni bu vaqtinchalik dunyoda ezgulikka intilish maqsad qilinadi. Ekzistensiya va aksiologiya bir-birini to'ldiruvchi konsepsiyalardir. Ekzistensiya insonning borlig'ini, aksiologiya esa bu borliqning mazmunini tushuntiradi. Inson o'z ekzistensiyasini faqatgina ma'lum bir qadriyatlar (aksiologiya) asosida ongli va mas'uliyatli ravishda yarata oladi. Bu uyg'unlik insonning hayotini nafaqat oddiy mavjudlikdan, balki maqsadli va ma'noli borliqqa aylantirishga yordam beradi.

Insonning hayotidagi eng muhim savollardan biri – bu ekzistensiya (mavjudlik)ning hayotni qadrlash va uning mazmunini anglash bilan qanday bog'liqligidir. Bu ikki tushuncha bir-birisiz to'liq tushunib bo'lmaydi. Ekzistensial falsafaga ko'ra, inson o'z mavjudligini ongli ravishda anglab yetganidagina, uning hayoti qadr-qimmatga ega bo'ladi va ma'no topadi. Biz hayotimizning asosiy "muallifi"miz. Ya'ni shaxs jamiyatda mutloq erkin, lekin shu bilan birga, to'liq javobgarlik va mas'uliyatni yodda tutishi talab etiladi. Aynan shu erkinlik va javobgarlik tuyg'usi insonning hayotini qadrlashiga asos bo'ladi. Hayotni qadrlash va uning mazmunini anglash jarayoni ekzistensial holatlar bilan uzviy bog'liq. Inson o'z hayotining mutlaq erkinligi oldida qo'rquv va tashvish his qiladi. Bu ekzistensial qo'rquv uni noautentik (soxta) hayotdan voz kechishga undaydi va hayotga shaxsiy ma'no beradigan qadriyatlarni tanlashga majbur qiladi. Ekzistensiya va hayotni qadrlash haqidagi ta'limotlarning amaliy natijasini quyidagi bilan bog'lash mumkin:

Ma'noni qidirish emas, uni yaratish. Bunda hayotning ma'nosini qidirib vaqt yo'qotmasdan uning mazmuni, o'z harakatlarimiz, ijodimiz, munosabatlarimiz va tanlovlarimiz orqali kashf etish lozim.

Mas'uliyatni qabul qilish. Muvaffaqiyat va muammolarimiz uchun javobgarlikni o'z zimmizga olish. Bu o'z hayotimizni boshqarish kuchiga ega ekanligimizni anglatadi. O'ziga xoslikni qadrlash. O'z ichki ovozimizni tinglab, o'z hayotimiz uchun mos bo'lgan qadriyatlar va

maqsadlarni yaratish. Ekzistensiya va hayotni qadrlash o'rtasidagi uyg'unlik shundan iboratki, inson o'z mavjudligining noyob ekanligini anglab, hayotning har bir onini maqsadli va ongli ravishda yashashi kerak. Bu hayotning mazmunini anglash va uni to'liq qadrlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo falsafiy ta'limotlarida insonning o'zlikni anglashi, ma'naviy erkinligi va hayot mazmuni kabi ekzistensial tadqiqotlar tasavvuf falsafasi, xususan, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi allomalarning "Komil inson" g'oyasi insonning o'z ichki mohiyatini anglash va ma'naviy yuksalish orqali o'z mavjudligiga mazmun berish (autentiklikka intilish) bilan o'xshashdir[12]. Ularning asarlari va qarashlarini o'rganish ekzistensiyaning milliy talqinini beradi. Qolaversa, "shaxs erkinligi", "ma'naviy qadriyatlar", "hayot mazmuni muammosi" sini tadqiq etish, yurtimiz donishmand-allomalarning diqqat markazida bo'lib, ekzistensializm va Sharq ma'naviyati uyg'unlashgan holda tahlil qilinadi. Bunda inson faoliyatini falsafiy jihatdan tadqiq etish quyidagi xulosalarni beradi:

-Inson hayotida aktivlikni kuzatilishi, faollikka intilishi.

-Mas'uliyatni his etish, sharaf bilan hayot kechirish, ijtimoiy normalarga insoniylik bilan amal qilish.

-Haqiqiy (autentik) mavjudlikka erishish faqatgina o'z erkinligini anglab, o'z faoliyati uchun to'liq mas'uliyatni olish. Inson o'z erkinligi va mas'uliyati cheksiz ekanini anglaganida, hamda hayotning oxir-oqibat ma'nosizlik (absurd) bilan tugashi mumkinligini his qilganida qo'rquv paydo bo'ladi. Bu qo'rquv insonni noautentik (soxta, boshqalarning qolipidagi) hayotdan voz kechishga va o'z hayotini o'zi tanlab, yaratishga majbur qiladi. Ekzistensial yolg'izlik (boshqalar bilan birga bo'lishga qaramay, o'z-o'ziga javobgar bo'lish zarurati) insonni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi, balki shaxs sifatida shakllanish uchun zamin yaratadi. Hech kim insonning o'rniga qaror qabul qila olmaydi, hech kim uning o'rniga o'la olmaydi. Bu shaxsiy yagonalik tuyg'usi yolg'izlikni keltirib chiqaradi. Bu yolg'izlikni tan olish insonga o'z shaxsiy qadriyatlari va ichki ovozi asosida harakat qilish imkonini beradi, natijada u boshqalar bilan haqiqiy (samimiy) munosabatlar o'rnatadi. Hayotning oldindan berilgan, universal ma'nosi yo'q, lekin inson o'z faoliyati orqali o'zi uchun ma'no yaratishga majburdir. Inson ma'noni passiv qabul qilmaydi, balki uni o'z harakatlari va maqsadlari orqali faol ravishda ijod qilish, kattaroq maqsadga intilish va shu orqali o'z hayotiga shaxsiy va mohiyatli mazmun bag'ishlashni o'rgatadi. Markaziy Osiyo va O'zbekiston falsafasi, faylasuflar, ularning ijodi va ilmiy merosida umuminsoniy mezonlar va xolislik tamoyillariga tayanilgan. Mavjudlik falsafasining barcha yo'nalishlari va oqimlari, atoqli allomalar hayoti va ijodi, bu soha bilan bog'liq qonun va kategoriyalar Sharq allomalari, jumladan Markaziy Osiyo va O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan mutafakkirlar, ularning insoniyat

tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan asarlari, nazariya va ta'limotlari, g'oya va qarashlari keng o'rganilmoqda.

Xulosa qilganda inson jamiyatda o'zining qandaydir rolini bajarib boradi. Bu xilma-xil niqoblar ortida insonning asl qiyofasi yashirinib yotadi. Bu asl qiyofa qachon ochilishi mumkin? Bu qiyofa zaminida yotgan inson mohiyati qachon yuzaga chiqadi? Bu masala ekzistensializm ta'limotida dolzarbdir. Inson o'z hayotining mohiyati va ma'nosini anglashi uchun u erkinlikni tanlash huquqiga ega bo'lishi kerak. Ekzistensiya falsafasi inson hayot mohiyatini bilishga emas, balki shu hayotda yashash, mavjud bo'lishga intilishi kerak, deb hisoblaydi. Inson faqat o'z aql-tafakkuri bilan olamni anglashi, hayotda ezgulikka intilishi, ichki ruhiy olamini kamolot sari yetaklashi zarurdir. Jamiyatda insoniylik fazilatlariga amal qilish, kamtar va siniqlik, samimiylilik, hayotning go'zalligini his qilishi kabi masalalarning ustunligini tushunib yetishi lozim. Ekzistensializmga ko'ra, inson o'z qo'li bilan yaratgan narsalardagina joziba, go'zallik saqlanadi. Inson bu narsalarni yaratishda ularga o'z mehrini beradi. Hozirgi texnika dunyosida esa inson bunday ruhiy aloqani yo'qotgan, natijada inson o'zi yaratgan moddiy olamdan ham begonalashib, narsalardan faqat manfaat keltirish jihatidan foydalanmoqda. Insonning asl qiyofasi faqat ayrim sharoitlarda yaqqol ochilishi mumkin. Bunday vaziyatda inson hayotida tabiiylik yo'qolib, sun'iylikni ko'payishi, O'lim va hayot o'rtasidagi chegara, insonning ichki, tashqi olami o'rtasidagi hamda insonning mavjudligi va haqiqiy borlig'i mohiyati o'rtasidagi chegara nihoyatda murakkab bo'lib, ekzistensiya ta'limotida insonning ichki olamiga, erkinlik masalasiga katta e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жан-Поль Сартр. "Бытие и Ничто" (Мавжудлик ва Йўқлик), "Экзистенциализм – это гуманизм" (Экзистенциализм – бу гуманизм)
2. Альбер Камю. "Миф о Сизифе" (Сизиф афсонаси), "Посторонний" (Бегона).
3. Мартин Хайдеггер. "Бытие и время" (Мавжудлик ва вақт).
4. Сёрен Кьеркегор "Страх и трепет" (Қўрқув ва Титроқ), "Или — Или" (Ёки — Ёки).
5. Карл Ясперс "Философия", "Духовная ситуация времени" (Замоннинг маънавий аҳволи).
6. Фалсафа энциклопедик лугат. И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқук институти Тошкент 2010. 6-3.
7. Қ.Назаров Қадриятлар фалсафаси (Аксиология) Тошкент 2004. Б-46.
8. Ж.П.Сартр. Тошнота: Роман./Пер. с фр. – СПб: Азбука-классика, 2003. 256 стр. ISBN 5-352-00378-7.

9. Camus, A. (1989). The myth of Sisyphus and other essays (J. O'Brien, Trans.). New York: Vintage Books.
10. Н.Маматов, А.Ҳожибоев, Ш.Жўраев Фалсафа тарихи (Шарқ ва Ғарб фалсафаси, ўқув қўлланма). Тошкент, ТМИ - 2006. бет-117.
11. Қ.Назаров Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб / — Т.: «Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2023. Б-555
12. Х.Алиқулов Ўзбекистон фалсафаси тарихи. Тошкент. 2013 б-73.